



KORXONALARDA ASOSIY VOSITALAR ESKIRISHINI HISOBGA OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA ULARNING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIRI

Hamdamova Muhlisa Umidjon qizi

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda asosiy vositalar eskirishini hisobga olishning zamonaviy usullari, jumladan, to'g'ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq, ishlab chiqarish hajmiga mutanosib va tezashtirilgan amortizatsiya usullarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada asosiy vositalarni samarali boshqarish, amortizatsiya siyosatini to'g'ri shakllantirish va buxgalteriya hisobida xalqaro standartlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vositalar, amortizatsiya, eskirish hisobi, amortizatsiya ajratmalari, moliyaviy natijalar, buxgalteriya hisobi, korxonalar xarajatlari, foyda.

Kirish. Hozirgi globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Korxonaning ishlab chiqarish salohiyati, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan uning asosiy vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ulardan foydalanish samaradorligiga bog'liqdir. Asosiy vositalar korxonaning uzoq muddatli aktivlari sifatida ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi va ular orqali mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda daromad olish jarayonlari amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarning vaqt o'tishi bilan jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Ushbu eskirish qiymat ko'rinishida amortizatsiya



ajratmalari orqali ifodalanadi va bu jarayon buxgalteriya hisobi tizimida muhim o‘rin egallaydi. Amortizatsiya hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi korxonaning moliyaviy natijalarini aniq aks ettirish, aktivlarning real qiymatini baholash va investitsion qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda asosiy vositalar eskirishini hisobga olish usullarining xilma-xilligi korxonalarga moliyaviy natijalarni boshqarish imkoniyatini yaratadi. Xususan, turli amortizatsiya usullaridan foydalanish orqali korxonaga o‘z xarajatlarini tartibga solishi, foyda miqdorini optimallashtirishi hamda soliqqa tortish bazasini boshqarishi mumkin. Shu bilan birga, amortizatsiya siyosati korxonaning investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida asosiy vositalarni hisobga olish va amortizatsiya ajratmalarini aniqlash bo‘yicha yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu esa korxonalardan yanada shaffof, aniq va ishonchli moliyaviy axborot taqdim etishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, asosiy vositalar eskirishini hisobga olishning zamonaviy usullarini o‘rganish va ularning moliyaviy natijalarga ta‘sirini chuqur tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi korxonalarda asosiy vositalar eskirishini hisobga olishning zamonaviy usullarini o‘rganish, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish hamda ushbu usullarning korxonaga moliyaviy natijalariga ta‘sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida amortizatsiya usullarining nazariy asoslarini o‘rganish, amaliy qo‘llanilishini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish belgilandi.

Shunday qilib, asosiy vositalar eskirish hisobi va uning moliyaviy natijalarga ta‘sirini tadqiq etish korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.



Asosiy vositalar eskirishini hisobga olish masalalari ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, K. Drury o‘zining “Management and Cost Accounting” asarida amortizatsiya xarajatlarini boshqaruv hisobining muhim elementi sifatida ko‘rib chiqib, turli usullarning foydaga ta‘sirini tahlil qilgan [1].

S. Bragg o‘zining ilmiy ishlarida amortizatsiya usullarining korxonada moliyaviy hisobotlariga ta‘siri haqida batafsil to‘xtalib o‘tgan va tezlashtirilgan amortizatsiya usullarining soliq yukini kamaytirishdagi ahamiyatini ta‘kidlagan [2].

O‘zbek olimlaridan A. Vahobov “Moliyaviy hisobot” asarida asosiy vositalarni baholash va amortizatsiya hisoblashning milliy xususiyatlarini yoritib, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini asoslab bergan [3].

Shuningdek, M. Pardayev o‘z maqolasida korxonalarda asosiy vositalar eskirish darajasini tahlil qilish orqali investitsion faoliyatni samarali tashkil etish mumkinligini qayd etadi [4].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, amortizatsiya usullarini tanlash korxonada moliyaviy natijalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mazkur tezisdagi tahliliy, taqqoslash, statistik va ekonometrik usullardan foydalanildi. Asosiy vositalar eskirishini hisoblashning turli usullari o‘zaro solishtirildi va ularning moliyaviy natijalarga ta‘siri baholandi. Shuningdek, korxonalar misolida amaliy ma‘lumotlar asosida umumlashtirish va xulosa chiqarish usullari qo‘llanildi.

Korxonalarda asosiy vositalar eskirishini hisobga olish jarayoni ularning moliyaviy natijalarini shakllantirishda muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi. Amortizatsiya ajratmalari ishlab chiqarish xarajatlarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali asosiy vositalarning qiymati mahsulot tannarxiga bosqichma-bosqich o‘tkaziladi. Shu sababli amortizatsiya usulini tanlash nafaqat buxgalteriya hisobiga, balki korxonaning sof foydasi, rentabelligi va soliq majburiyatlariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.



Ilmiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, amortizatsiya usullari iqtisodiy mazmuniga ko'ra turlicha moliyaviy natijalarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, tezlashtirilgan amortizatsiya usullaridan foydalanish korxonalariga dastlabki yillarda ko'proq xarajatlarni tan olish orqali soliq yukini kamaytirish va ichki moliyaviy resurslarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa investitsiya faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Quyidagi misolda turli amortizatsiya usullarining moliyaviy natijalarga ta'siri shartli ravishda ko'rsatib beriladi.

Shartli hisob-kitob sharoiti:

- Asosiy vosita qiymati: 100 mln so'm
- Foydali xizmat muddati: 5 yil
- Qoldiq qiymat: 0
- Yillik tushum: 80 mln so'm
- Boshqa xarajatlar: 30 mln so'm

1-jadval

Amortizatsiya usullarining moliyaviy natijalarga ta'siri (mln so'mda)

Yillar	To'g'ri chiziqli amortizatsiya	Tezlashtirilgan amortizatsiya	Ishlab chiqarish usuli
1-yil amortizatsiya	20	40	25
1-yil foyda	30	10	25
2-yil amortizatsiya	20	25	22
2-yil foyda	30	25	28
3-yil amortizatsiya	20	15	20
3-yil foyda	30	35	30
4-yil amortizatsiya	20	10	18
4-yil foyda	30	40	32
5-yil amortizatsiya	20	10	15



5-yil foyda	30	40	35
-------------	----	----	----

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, to'g'ri chiziqli amortizatsiya usulida xarajatlar va foyda barqaror shakllanadi. Bu usul moliyaviy hisobotlarning soddaligi va prognozlash imkoniyatining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, u iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga moslashish darajasi past bo'lgan usul hisoblanadi.

Tezlashtirilgan amortizatsiya usulida esa asosiy vositaning qiymati dastlabki yillarda tezroq hisobdan chiqariladi. Natijada birinchi yillarda foyda keskin kamayadi, lekin keyingi yillarda aksincha oshib boradi. Bu holat korxonaga qisqa muddatda soliq yukini kamaytirish va qo'shimcha pul oqimlarini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarida ushbu usul samarali hisoblanadi.

Ishlab chiqarish hajmiga bog'liq amortizatsiya usuli esa iqtisodiy jihatdan eng real usullardan biri bo'lib, asosiy vositalardan foydalanish darajasiga mos ravishda amortizatsiya ajratmalarini hisoblash imkonini beradi. Bu usul korxonaning ishlab chiqarish hajmi o'zgaruvchan bo'lgan sharoitda aniqroq moliyaviy natijalarni shakllantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amortizatsiya usullarining tanlanishi quyidagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- ❖ Sof foyda – amortizatsiya xarajatlari oshishi foydaning kamayishiga olib keladi.

- ❖ Rentabellik – foyda va aktivlar nisbatiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

- ❖ Soliq yuklamasi – foyda kamayganda soliq ham kamayadi.

- ❖ Pul oqimlari – tezlashtirilgan usulda dastlabki yillarda ko'proq shakllanadi.

Shuningdek, iqtisodiy tahlil natijalari asosiy vositalar eskirish darajasi yuqori bo'lgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi pasayishini ko'rsatadi. Bu esa asosiy vositalarni yangilash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan,



amortizatsiya siyosati nafaqat hisob-kitob vositasi, balki investitsion boshqaruv instrumenti sifatida ham qaralishi lozim.

Zamonaviy korxonalarda raqamli texnologiyalar asosida amortizatsiya hisobini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshiradi hamda moliyaviy natijalarni yanada aniqroq rejalashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, asosiy vositalar eskirishini hisobga olish usullarini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalar eskirishini hisobga olish usullari korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir usulning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni tanlash korxonaning strategik maqsadlariga mos kelishi zarur. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tezlashtirilgan va moslashuvchan amortizatsiya usullaridan foydalanish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga moslashish va raqamli texnologiyalarni joriy etish amortizatsiya hisobini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Drury K. Management and Cost Accounting, Cengage Learning, London, 2018, 450 p.
2. Bragg S. Accounting Best Practices, Wiley, New York, 2019, 320 p.
3. Vahobov A. Moliyaviy hisobot, Toshkent, "Iqtisodiyot", 2020, 280 bet.
4. Pardayev M. Korxonalarda asosiy vositalar tahlili, "Iqtisod va moliya" jurnali, Toshkent, 2021, 45-50 betlar.